



TECHNICAL TERMS AND VERB-BASED SENTENCE CONSTRUCTION: A SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS

Jurayeva Gulnoza Nasirullayevna

*TSTU named after Islam Karimov
Senior Lecturer of the Department of
«Practical English Language»
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the linguistic features of scientific and technical texts in modern linguistics, with particular emphasis on the relationship between terms and verbs. The author considers terminological units not only as elements of the lexical level but also as fundamental components of the syntactic system. It is argued that the stability of “term + verb” constructions, their strict valency, and standardization are important features of scientific style in technical discourse. It is also emphasized that verbs, when combined with terms, form a semantic unity and perform both conceptual and functional roles. The article examines issues such as the predominance of passive constructions, the widespread use of analytical verbal combinations, and the acquisition of terminological meaning by metaphorical verbs. Syntactic challenges of technical translation in English and Uzbek are comparatively analyzed. Furthermore, from the perspective of corpus linguistics and automatic text analysis, the prospects of modeling technical constructions in computer systems are highlighted. The research results provide an important theoretical and practical foundation for a deeper understanding of technical discourse, improving translation quality, and advancing scientific and technical communication.*

Key words: *scientific and technical texts, terminological system, syntactic structure, relation between term and verb, valency, scientific style, passive construction, analytic verbal combinations, metaphorical verbs, standardization, discourse analysis, cognitive linguistics, corpus linguistics, technical translation, information accuracy.*

TEXNIK TERMIN VA FE'L ASOSIDA GAP TUZILISHIDA KONSTRUKSIYALAR: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

Jurayeva Gulnoza Nasirullayevna

*Islom Karimov nomidagi TDTU "Amaliy ingliz tili"
kafedrası katta o'qituvchi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda ilmiy-texnik matnlarning lingvistik xususiyatlari, ayniqsa termin va fe'l o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keng tahlil etiladi. Muallif terminologik birliklarni faqat leksik qatlam emas, balki sintaktik tizimning asosiy komponenti sifatida talqin qiladi. Texnik diskursda "termin + fe'l" konstruksiyalarining barqarorligi, qat'iy valentlik xususiyati va standartlashganligi ilmiy uslubning muhim belgisi ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, fe'llarning termin bilan birikib semantik yaxlitlik hosil qilishi, ularning konseptual va funksional rol o'ynashi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada passiv konstruksiyalarning ustunligi, analitik fe'l birikmalarining keng qo'llanishi hamda metaforik fe'llarning terminologik ma'no kasb etishi masalalari yoritilgan. Ingliz va o'zbek tillari qiyosida texnik tarjimaning sintaktik muammolari ham ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, korpus lingvistikasi va avtomatik matn tahlili nuqtayi nazaridan texnik konstruksiyalarning kompyuter tizimlarida modellashtirilishi istiqbollari ham qayd etiladi. Tadqiqot natijalari texnik diskursni chuqur anglash, tarjima sifatini oshirish hamda ilmiy-texnik kommunikatsiyani rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-texnik matnlar, terminologik tizim, sintaktik struktura, termin va fe'l munosabati, valentlik, ilmiy uslub, passiv konstruksiya, analitik fe'l birikmalari, metaforik fe'llar, standartlashuv, diskurs tahlili, kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, texnik tarjima, axborot aniqligi.

ТЕХНИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ И ПОСТРОЕНИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЙ НА ОСНОВЕ ГЛАГОЛОВ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Жураева Гульноза Насируллаевна

ТГТУ имени Ислама Каримова

ст. преподаватель кафедры

«Практический английский язык»

Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье широко анализируются лингвистические особенности научно-технических текстов в современной лингвистике, особенно взаимосвязь между термином и глаголом. Автор рассматривает терминологические единицы не только как элемент лексического уровня, но



и как основной компонент синтаксической системы. Обосновывается, что устойчивость конструкций «термин + глагол», их строгая валентность и стандартизованность являются важными признаками научного стиля в техническом дискурсе. Также подчеркивается, что глаголы, соединяясь с термином, образуют семантическое единство и выполняют концептуальную и функциональную роль. В статье рассматриваются вопросы преобладания пассивных конструкций, широкого использования аналитических глагольных сочетаний, а также приобретения метафорическими глаголами терминологического значения. Сопоставительно анализируются синтаксические проблемы технического перевода в английском и узбекском языках. Кроме того, с точки зрения корпусной лингвистики и автоматического анализа текста отмечаются перспективы моделирования технических конструкций в компьютерных системах. Результаты исследования служат важной теоретической и практической основой для углубленного понимания технического дискурса, повышения качества перевода и развития научно-технической коммуникации.

Ключевые слова: научно-технические тексты, терминологическая система, синтаксическая структура, связь термина и глагола, валентность, научный стиль, пассивная конструкция, аналитические глагольные сочетания, метафорические глаголы, стандартизация, дискурс-анализ, когнитивная лингвистика, корпусная лингвистика, технический перевод, информационная точность.

Hozirgi zamon tilshunosligida fan va texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan terminologik tizimlarni faqat leksik birliklar majmuasi sifatida emas, balki murakkab sintaktik butunlikning asosi sifatida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Texnik matnlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda axborot uzatishning aniqligi va ixchamligi birinchi o'ringa chiqadi (Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J., 1985). Bu jarayonda texnik terminlar va fe'llar o'rtasidagi bog'lanish o'ziga xos konstruktiv modellarni hosil qiladi. Termin muayyan tushunchani ifodalasa, fe'l ushbu tushunchaning harakatdagi holatini, funksional imkoniyatlarini va tizimli munosabatlarini ochib beradi. Texnik diskursda gap tuzilishining barqarorligi va qoliplashganligi ilmiy uslubning eng muhim belgilaridan biri sanaladi.

Ilmiy-texnik matnlarning lingvistik tabiatini o'rganishda terminologik nominatsiya va funksional sintaksis masalalari doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, akademik V.V. Vinogradov ta'limotiga ko'ra, ilmiy uslubda so'zning nominativ

funksiyasi birinchi planga chiqadi, biroq bu nominativ birliklar faqatgina fe'l bilan bog'langan holatdagina dinamik tizimni hosil qiladi. (Vinogradov, 1972). Texnik sohadagi gap konstruksiyalarini tahlil qilish jarayonida shu narsa ayon bo'ladiki, bu yerda fe'l nafaqat kesim, balki terminologik ma'noni konseptuallashtiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Bu esa o'z navbatida termin fe'l munosabatlarini tilshunoslikning alohida predmeti sifatida qarashga asos bo'ladi (Crystal, D., 2003).

Ilmiy nutqning tabiatini tahlil qilar ekanmiz, undagi predikativ munosabatlarning terminologik xarakterga egaligini ko'ramiz (Halliday, M.A.K., 1994). Texnik matnlarda fe'llar ko'pincha o'zining mustaqil leksik ma'nosidan ko'ra, termin bilan birgalikda hosil qiladigan semantik butunligi orqali qiymat kasb etadi. Masalan, tizimning ishlash jarayonini tavsiflashda qo'llaniladigan konstruksiyalar o'zining mantiqiy qat'iyati bilan ajralib turadi. Bunda fe'l terminning valentlik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy vositadir. Zamonaviy tilshunoslikdagi kognitiv yo'nalishlar texnik konstruksiyalarni inson tafakkurining mantiqiy modellari sifatida talqin etadi. Texnik matndagi har bir sintaktik qurilma muayyan texnologik algoritmnining tildagi in'ikosidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnik termin va fe'l o'rtasidagi bog'lanishda 'qat'iy valentlik' hodisasi kuzatiladi. Ya'ni, ma'lum bir texnik termin faqat ma'lum guruhdagi fe'llar bilangina leksik-semantik muvofiqlikka kirisha oladi. Masalan, elektrotexnika sohasida 'kuchlanish' termini asosan 'oshishi', 'pasayishi', 'berilishi' yoki 'o'lchanishi' kabi chegaralangan fe'llar doirasida qo'llaniladi. Bu esa texnik nutqning yuqori darajada standartlashganligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnik matnlarda keng qo'llaniladigan oddiy va kengaygan konstruksiyalar axborotning mantiqiy izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi (Swales, J. M., 1990). Termin ega vazifasida kelganda, fe'l uning funksional xususiyatini ko'rsatadi, bu esa texnik jarayonning dinamikasini ifodalash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ilmiy-texnik uslubda shaxssiz ifoda shakllariga bo'lgan moyillik kuchli ekanligini ta'kidlash lozim. Bu holat matnda majhul nisbatdagi konstruksiyalarning ustunligini ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi texnik matnlar qiyoslab ko'rilganda, ingliz tilidagi faol nisbatdagi (active voice) konstruksiyalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ko'pincha majhul nisbatga (passive voice) transformatsiya qilinishi aniqlandi. Bu o'zbek ilmiy uslubining ichki qonuniyatlari bilan izohlanadi. Ilmiy maqolalarda muallifning shaxsiy ishtirokini kamaytirish va e'tiborni sof obyektga yo'naltirish maqsadida 'aniqlandi', 'kuzatildi', 'tahlil qilindi' kabi standartlashgan passiv konstruksiyalardan foydalanish informativ zichlikni oshiradi. (Swales, J. M., 1990).

Bunday yondashuv texnik jarayonlarning uzluksizligini va subyektivlikdan xoliligini ta'minlaydi. Texnik tavsiflarda harakat ijrochisi emas, balki jarayonning



o'zi va natijasi muhim sanalgani bois, passiv konstruksiyalar obyektivlikni ta'minlovchi asosiy sintaktik modelga aylanadi. Bunday gaplarda termin harakat obyekti bo'lsa-da, grammatik jihatdan ega vazifasini bajaradi va diqqat markazini texnik hodisaga qaratadi. Bu kabi modellar muhandislik yo'riqnomalari, ilmiy hisobotlar va texnik reglamentlarda axborot uzatishning eng samarali usuli hisoblanadi (Swales, J. M., 1990). Matnning ravonligi va mantiqiy bog'liqligi esa ushbu konstruksiyalarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi.

Analitik shakldagi fe'l birikmalari texnik matnlarning nominal xarakterini kuchaytiradi. Ya'ni, sof fe'llar o'rniga fe'l va ot birikmalaridan iborat konstruksiyalardan foydalanish ilmiy nutqni rasmiylashtiradi. Masalan, jarayonning kechishini ifodalashda bitta fe'l o'rniga terminologik asosga ega bo'lgan murakkab birikmalarning qo'llanilishi fikrning yanada aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu kabi lingvistik hodisalar texnik tarjima amaliyotida ham muhim o'rin tutadi. Bir tildagi texnik konstruksiyani ikkinchi tilga o'girishda nafaqat terminologik ekvivalentlikni, balki sintaktik muvofiqlikni ham saqlash talab etiladi. Termin va fe'l o'rtasidagi aloqa uzilsa yoki noto'g'ri konstruksiya tanlansa, texnik axborotning mazmuni buzilishi va amaliy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Texnik konstruksiyalarning modellashtirilishi va statistik tahlili ilmiy diskursning strukturaviy mukammalligini belgilovchi mezonlardan biridir. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, texnik matnlarda "termin + fe'l" bog'lanishining qariyb 70 foizi barqaror sintaktik klishe'larni tashkil etadi. Bu klishe'lar axborotni kodlashtirish va dekodlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Diskursiv tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, texnik sohada fe'llarning semantik yuklamasi terminning xarakteriga qarab differentsiatsiya qilinadi. Masalan, axborot texnologiyalari sohasidagi "to process" (qayta ishlash) fe'li o'zbek tilidagi texnik matnlarda asosan analitik shakllar ("qayta ishlash jarayoni amalga oshiriladi") orqali berilishi matnning ilmiy darajasini oshiruvchi omil sifatida baholanadi (Newmark, P., 1988). Shuningdek, mantiqiy izchillikni ta'minlashda fe'l zamonlarining bir xilligi, ya'ni asosan hozirgi zamon va o'tgan zamon sifatdoshlari asosidagi konstruksiyalarning qo'llanilishi texnik dunyoqarashning statik va dinamik muvozanatini saqlashga xizmat qiladi (Rahmatullayev Sh., 2010). Mazkur jarayonlarni statistik o'rganish tilning terminologik imkoniyatlarini boyitish bilan birga, mutaxassislar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarni optimallashtiradi.

Shuningdek, texnik matnlardagi konstruksiyalarning ravonligini ta'minlashda metaforik ma'nodagi fe'llarning terminologik ma'no kasb etishi ham kuzatiladi. Masalan, 'tarmoqning qulashi' yoki 'tizimning oziqlanishi' kabi ifodalarda fe'llar o'z boshlang'ich ma'nosidan uzoqlashib, muayyan texnik holatni anglatuvchi barqaror konstruksiya qismiga aylanadi. Bu esa texnik nutqning nafaqat qat'iy, balki moslashuvchan lingvistik tizim ekanligini ko'rsatadi. Mazkur



konstruksiyalarni avtomatik qayta ishlash va kompyuter lingvistikasi algoritmlariga kiritish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yoʻnalishi hisoblanadi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, texnik termin va feʼl asosidagi gap konstruksiyalari ilmiy nutqning poydevorini tashkil etadi. Ular axborotni tizimli va xolis yetkazishning eng optimal shakllaridir. Mazkur konstruksiyalarni chuqur oʻrganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki texnik taʼlim, kompyuter lingvistikasi va professional tarjima sohalari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelajakda korpus lingvistikasi metodlari yordamida ushbu modellarning statistik tahlilini oʻtkazish texnik terminologiyaning sintaktik lugʻatlarini yaratish imkonini beradi. Bu esa oʻz navbatida ilmiy muloqot samaradorligini oshirish va professional nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

References:

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
 2. Halliday, M. A. K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold.
 3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
 4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
 5. Rahmatullayev, Sh. (2010). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: Universitet.
 6. Swales, J. M. (1990). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge University Press.
- Vinogradov, V. V. (1972). Russkiy yazik (grammaticheskoye ucheniye o slove). Moskva: Visshaya shkola.